



ANDIJON VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI
BO`Z TUMANIDAGI №26 – DIMI
TARIX – HUQUQ FANLARI O`QITUVCHISI

YUNUSOV MIRZOHID

MUYDINOVICHNING

«DAVLATIMIZGA , MUNOSIB FUQAROLIK JAMIYATI
ISHTIROKCHILARINI YETKAZIB BERISH ,
O`QUVCHILARNING HUQUQIY BILIM VA MALAKALARINI
BOYITISH»DA «NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING
O`RNI MAVZUSIDAGI

OMMALASHTIRISH
TAVSIYASI



BO`Z №26 – DIMI

**«DAVLATIMIZGA , MUNOSIB FUQAROLIK JAMIYATI ISHTIROKCHILARINI
YETKAZIB BERISH , O'QUVCHILARNING HUQUQIY BILIM VA
MALAKALARINI BOYITISH»DA
ANDIJON VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASIGA QARASHLI BO'Z
TUMANIDAGI №26 – DIMI QOSHIDA TASHKIL ETILGAN «NIHOL»
BOLALAR RESPUBLIKASINING O'RNI**

**«BILIMGA CHANQOQ , ISTE'DODLI
YOSHLARNI TOPIB , ULARNI VATANGA
FIDOIY INSONLAR QILIB TARBIYALASH
MUQADDAS VAZIFAMIZDIR ... »**

I.A.KARIMOV

**«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASI 2001 YILNING 20 – DEKABRIDA
TASHKIL ETILGAN. «NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINI TASHKIL
ETISHDAN MAQSAD:**


- 1.O'VCHILARNING HUQUQIY BILIMLARINI OSHIRISH.**
- 2.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI CHUQUR O'RGANISH.**
- 3.O'QUVCHILARNI O'ZINI – O'ZI BOSHQARISHGA O'RGATISH.**
- 4.VATANIMIZGA YETUK FUQAROLIK JAMIYATI ISHTIROKCHILARINI
YETKAZIB BERISH.**

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASI O'ZINING:

- PREZIDENTI;**
- KONSTITUTSIYASI;**
- DAVLAT ORGANLARI;**
- DAVLAT RAMZLARI;**
- ICHKI VA TASHQI SIYOSATI;**
- QONUN CHIQARUVCHI , IJRO ETUVCHI VA SUD HOKIMIYATI;**
- MA'MURIY – HUDUDIIY DAVLAT TUZILISHI;**
- FUQAROLIGI;**
- SAYLOV TIZIMI;**
- BYUDJETI , MOLIYA VA KREDIT TIZIMIGA EGA .**

**«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINI BOSHQARUVI XALQ (FUQAROLARI)
TOMONIDAN 2 YILGA SAYLANUVCHI PREZIDENTI TOMONIDAN AMALGA
OSHIRILADI .**

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING BOSHQARUV TIZIMI



«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING PREZIDENTI VA OLY KENGASH DEPUTATLARI SAYLOVI O'QUV YILINING OXIRGI OYI UCHINCI O'N KUNLIGI BIRINCHI CHORSHANBASIDA O'TKAZILADI.

HAR BIR SINIF SARDORI (SINFKOMI) SINIF HOKIMI VAZIFASINI BAJARADI.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING OLIY KENGASHINING SENATI VA QONUNCHILIK PALATALARI DEPUTATLARI FUQAROLAR TOMONIDAN UMUMIY, TENG VA TO'G'RIDAN – TO'G'RI SAYLOV HUQUQI ASOSIDA YASHIRIN OVOZ BERISH YO'LI ORQALI SAYLANADILAR.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING PREZIDENTI VA OLIY KENGASH DEPUTATLARI SAYLOVI MOJARITAR (50+1)PRINSIPI ASOSIDA OTKAZILADI

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING PREZIDENTI SAYLANGACH, OLIY KENGASH MAJLISIDA QASAMIYODINI QABUL QILGACH O'Z LAVOZIMIGA KIRISHGAN HISOBLANADI.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING PREZIDENTI QASAMIYODI:

"Nihol" bolalar respublikasi fuqarolariga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va Qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, fuqarolarning bilim olishlarida va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman".

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING FUQAROLARI QASAMIYODI:

"Men . . ."Nihol" bolalar respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekanman , Respublikam rivojiga o'z ulushimni qo'shgan holda "Nihol" bolalar respublikasi Konstitutsiyasi va 26 – DIMI Ustaviga amal qilgan holda , zimmamga yuklatilgan vazifalarni bo'yin tovlamay bajarishga qasamiyod qilaman".
PREZIDENTLARNING VAKOLATLARI ALMASHINUVI JARAYONI:



«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING PREZIDENTI SAYLOVI JARAYONI:



«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING YOSH HUQUQSHUNOSLARI:



«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASI HAYOTI:



**ANDIJON VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASIGA QARASHLI
BO'Z TUMANIDAGI №26 – DAVLAT IHTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB –
INTERNATI DIREKTORI GALINA TIMOFEYEVNA SOY RAXBARLIGIDA
BIR NECHA YILDAN BUYON BIRLASHGAN MILLATLAR
TASHKILOTINING «YUNISEF» BOLALAR JAMG'RMASI «BOLA HUQUQLARI
TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYASI»NI O'RGANISH YO'LGA QO'YILGAN.**

**«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASI FUQAROLARI QUYIDAGILARNI
TARG'IBOT QILADI:**

**«BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYA» - BU BUTUN
JAHON BOLALARIGA XOS BO'LGAN BOLALAR HUQUQLARI HAQIDAGI
BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING SHARTNOMASIDIR.**

**USHBU KONVENSIYA INSONIYAT TARIXIDAGI ILK BOLA
HUQUQLARI HAQIDAGI UNIVERSAL KODEKSDIR.**

**BOLA HUQUQLARI. ASOSIY SANALAR
1923 – YIL : BIRINCHI BOLALAR HUQUQLARI DEKLARATSIYASI QABUL
QILINDI;**

**1924 – YIL : BOLA HUQUQLARI DEKLARATSIYASI MILLATLAR
ITTIFOQI TOMONIDAN QABUL QILINDI;**

**1948 – YIL : 10 DEKABRDA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI
BOSH ASSAMBLEYASI TOMONIDAN «INSON HUQUQLARI
UMUMJAHON DEKLARATSIYASI» QABUL QILINDI;**

**1979 – YIL : «BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYA»
MATNINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ISHCHI GURUH
TUZILDI;**

**1989 – YIL : BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH
ASSAMBLEYASI TOMONIDAN 20 – NOYABR KUNI
«BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYA»
QABUL QILINDI;**

**1990 – YIL : 2 SENTABRDA «BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI
KONVENTSIYA» XALQARO QONUN SIFATIDA KUCHGA
KIRDI.**

**«BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYA»SIDA BAYON
ETILGAN HUQUQLAR KATEGORIYASI:**

- I.TIRIK QOLISH HUQUQI: YASHASH VA YUKSAK DARAJADAGI TIBBIY
XIZMAT Olish HUQUQI.**
- II.XIMOYALANISH HUQUQI: DISKRIMINATSIYA (KAMSITILISH),SUYIISTIMOL-
LIKAR VA QO'POL MUOMALALARDAN
(OILASIZLIK VA QOCHOQLIKDAN)
XIMOYALANISH HUQUQI.**
- III.RIVOJLANISH HUQUQI: ILM OLISHNING BARHA TURLARI , JISMONIY ,
AQLIY , MA'NAVIY , AHLOQIY , VA IJTIMOII
KAMOL TOPISH UCHUN ZARUR XISOBLANGAN
TURMUSH DARAJASIGA EGA BO'LISH HUQUQI.**
- IV.ISHTIROK ETISH HUQUQI: BOLA MANFAATLARIGA DAXLDOR BO'LGAN
MASLALAR BO'YICHA SHAXSIY FIKRINI
ERKIN IFODALASH HUQUQI.**

**BOLALARGA O'Z HUQUQLARINI ,
NIMA UCHUN O'RGATISH KERAK ?**

**«AFSUSKI DUNYONING KO'PGINA MAMLAKATLARIDA BOLALAR
HALI HAM O'Z HUQUQLARIDAN MAXRUM ETILGANLAR . ULARNING
SOG' – SALOMAT YASHAB , TO'LA QONLI RIVOJLANISHLARI VA
JAMIYAT HAYOTIDA FAOL ISHTIROK ETISHLARI UCHUN XECH
QANDAY IMKONIYATLAR YARATILMAGAN.**

**DEMAK BOLALARIMIZGA INDIVIDUAL VA GLOBAL RIVOJLANISH
JARAYONIDA , UMUMAN OLGANDA HUQUQNING O'ZI NIMA ?
ULARNING QANDAY HUQUQLARI BOR ? HUQUQLARINI POYMOL
QILAYOTGANLARGA OLINGAN HUQUQIIY BILIM – KO'NIKMALARI
ORQALI JAVOB QAYTARA OLISHLARI , O'ZINING VA BOSHQALARINING
HUQUQLARINI XIMOYA QILISHLARIGA KUCH TOPA OLISHLARI
LOZIMLIGINI TUSHUNTIRISH KERAK!»**

**«BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYA» ORQALI
BUNI SEN BILISHING KERAK!**

**3 – MODDA : FAROVONLIGING UCHUN ZARUR XISOBLANGAN , XIMOYA
VA G'AMXO'RLIK BILAN TA'MINLANISH HUQUQIGA
EGASAN.**

6 – MODDA : YASHASH VA SOG'LOM RIVOJLANISH HUQUQIGA EGASAN.

12,13,14 –

**MODDALAR : O'Z QARASHLARINGNI , FIKRINGNI IFODALASH , VIJDON
VA DIN ERKINLIGIGA EGASAN.**

**17 – MODDA : SOG'LOM , JISMONIY VA RUXIY RIVOJLANISHGA
QARATILGAN AXBOROTLARDAN FOYDALANISH
HUQUQIGA EGASAN.**

20,21 –

**MODDALAR : OILA G'AMXO'RLIGIDAN MAXRUM BO'LGANDA DAVLAT
TOMONIDAN ALOXIDA XIMOYA VA YORDA OLISH
HUQUQIGA EGASAN.**

**24 – MODDA : ZARUR TIBBIY YORDAM KO'RSATILISHI VA
SOG'LIG'INGNI SAQLASH HUQUQIGA EGASAN.**

**26 – MODDA : IJTIMOIIY TA'MINOT NE'MATLARIDAN VA IJTIMOIIY
SUG'URTADAN FOYDALANISH HUQUQIGA EGASAN.**

**28 – MODDA : BEPUL VA MAJBURIY BOSHLANG'ICH TA'LIM ASOSIDA
TENG HUQUQLILIKGA EGA BO'LISH HUQUQIGA EGASAN.**

**31 – MODDA : DAM OLISH , BO'SH VAQTINGNI O'TKAZISH , YOSHINGGA
MOS O'YINLAR VA KO'NGIL OCHAR TADBIRLARDA
ISHTIROK ETISH , SAN'AT BILAN SHUG'ULLANISH
HUQUQIGA EGASAN.**

**37 – MODDA : QIYNOQLARGA , YA'NI BOSHQA SHAVQATSIZLARCHA
JAZOGA DUCHOR ETILMASLIK HUQUQIGA EGASAN.**

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING RAMZLARI:

"Nihol" bolalar respublikasini gerbi, bayrog‘ i, nishoni, madhiyasi 2001 yilning 20-dekabrida Respublika prezidenti saylov kuni munosabati bilan tasdiqlandi.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING GERBI:



Qilich va qalqon: qonun himoyasidagi respublika ramz

Tarozi va kitob: bilim yordamida adolat o‘rnatish.

Humo qushi: Respublikamizda tinchlik va hamjihatlik ramzi bo‘lgan Humo qushi har bir muammoni ajdodlarimiz tutgan yo‘lga tayangan xolda hal qilish.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING NISHONI:



Tinchlik timsoli bo‘lgan oq kabutar, BUTUN DUNYO KELAJAGI IQTIDORLI VA MEXR – MURUVVATLI YOSHLAR QO‘LIDA ekanligini tasdiqlash.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING BAYROG'I:



Feruz rangi – musaffo osmon, keng dengiz, abadiylik, sodiqlik, bag‘rikenglik va safarbarlik belgisi. Oq rang – tozalik, shodlik, qonuniylik, haqiqatgo‘ylik, ruhiy sog‘lik, tinchlik va yaxshi hayot belgisi. 26 – uygunlik ramzi.

«NIHOL» BOLALAR RESPUBLIKASINING MADHIYASI:

Komilova Mamlakatxon she'ri

Ergashev Oybek musiqasi

Bepoyon yurtimning xur farzandlari,

Jasur o‘g‘lonlari, go‘zal qizlari

Ilm maskanida shod yurak bilan

Parvoz et, hamisha olg‘a bos qadam

Erkinlik, ozodlik senga berdi baxt

Parvozga yo‘l ochdi, ko‘ngillar obod

Bobolaring ruhin shod etib bugun

Buyuk mamlakatga sen o‘rnatding taxt.

Sen buyuk daxolar mamlakatidan

Madad ol ularning ta‘limotidan

Xuquq, iqtisodni egallab bugun

Serquyosh Vatanga xizmat qil har dam.

Bepoyon yurtimning xur farzandlari,

Jasur o‘g‘lonlari, go‘zal qizlari

Ilm maskanida shod yurak bilan

Parvoz et, hamisha olg‘a bos qadam



NIHOL BOLALAR RESPUBLIKASI **KONSTITUTSIYASI**

BO'Z TUMANI № 26-DIMI



**«NIHOL»BOLALAR
RESPUBLIKASINING
KONSTITUTSIYASI**

**BIRINCHI CHAQIRIQ
«NIHOL»BOLALAR RESPUBLIKASI
OLIY KENGASHINING
BIRINCHI SESSIYASIDA
2001 YILNING 20 – DEKABRDA
QABUL QILINGAN**

***"Nihol" bolalar respublikasining Asosiy qonunini
amalga kiritish to'g'risidagi***

Qarori

- 1. "Nihol" bolalar respublikasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid kelmaydigan qismi kuchga kiritilsin.***
- 2. Bolalar respublikasida asosiy qonunini va qonunga o'zgartirish kiritishni Oliy Kengash amalga oshiradi.***
- 3. Bolalar respublikasining Oliy Kengashi rayosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va 26-DIMI Nizomiga asosan ish olib boradi.***
- 4. Bolalar respublikasi tuzilgan 20 dekabr "Respublika kuni" deb e'lon qilinsin.***

**«NIHOL»BOLALAR
RESPUBLIKASINING
KONSTITUTSIYASI**

M U Q A D D I M A

"Nihol" bolalar respublikasi fuqarolari:

inson huquqlariga va Davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, xozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda;

o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda;

demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilgan holda;

halqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda;

bolalar respublikasi fuqarolarining munosib xayot kechirishini ta'minlashga intilgan holda;

insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlagan holda;

fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida;

o'zining muxtor vakillan siymosida "Nihol" bolalar respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

BIRINCHI BO'LIM
ASOSIY TAMOYILLAR
I-BOB
DAVLAT SUVERENITETI

1-modda. "Nihol" nodavlat bolalar respublikasi.

2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib uning manfaatlariga xizmat qiladi . Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

3-modda. Davlat qabul qilgan Qonunlar faqat maktab-internatiga qarashli hududlarda kuchga ega.

4-modda. "Nihol" bolalar respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

5-modda. "Nihol" bolalar respublikasi Qonun bilan belgilangan o'z davlat ramzlari bayrog'i, tang'asi va madhiyasiga ega.

6-modda. Respublika markazi maktab-internati binosidir.

II-BOB

XALQ HOKIMIYTCHILIGI

7-modda. Maktab-internati o'quvchilari va o'qituvchilari millatidan qat'iy nazar respublika fuqarosi hisoblanadi.

8-modda. Fuqarolar davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

9-modda. Fuqarolar nomidan faqat ular saylagan Respublika Oliy Kengashi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

10-modda. "Nihol" bolalar respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyillariga asoslanadi .

11-modda. "Nihol" bolalar respublikasida demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko'ra inson uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa dahlsiz huquqlar oliy qadriyat hisoblanadi.

12-modda. Davlat ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida ish olib boradi.

III-BOB

KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI

13-modda. "Nihol" bolalar respublikasida O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni va maktab-internati Nizomi so'zsiz tan olinadi.

IV-BOB

TASHQI SIYOSAT

14-modda. "Nihol" bolalar respublikasi halqaro faolyaitda, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga, umumta'lim maktab-internatining Nizomiga asosan ish olib boradi.

IKKINCHI BO'LIM

FUQOROLARNING ERKINLIKLARI, HUQUQLARI VA BURCHLARI

V-BOB

UMUMIY QOIDALAR

15-modda. "Nihol" bolalar respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, Qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat Qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo'lishi shart.

VI-BOB

FUQAROLIK

16-modda. "Nihol" bolalar respublikasi hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. maktab-internatiga yangi kelgan o'quvchilar bir chorak muddatdan so'ng fuqarolikka qabul qilinadi.

Faol, na'munali hulqi bilan maktab-internatida o'zini yaxshi tomondan namoyon etgan, bilimdon o'quvchilar yarim chorak muddatdan so'ng fuqarolikka qabul qilinadi.

17-modda. Maktab-internati ixtiyoridan chiqib ketish bilan respublika fuqarolari fuqaroligini yo'qotadilar.

18-modda. Maktab-internati bitiruvchilari umrbod "Nihol" bolalar respublikasining faxriy fuqarolari deb hisoblanadi.

19-modda. "Nihol" bolalar respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

20-modda. "Nihol" bolalar respublikasi fuqarolarigina respublika hayotida faol ishtirok etish huquqiga ega.

21-modda. Maktab-internati o'quvchilari fuqarolik qasamyodlarini qabul qilganlaridan so'ng fuqaro hisoblanadilar va maktab-internati fuqarolik belgisini taqishlariga ruxsat oladilar.

VII-BOB

SHAHSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

22-modda. Yshash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir.

23-modda. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir.

24-modda. Fuqaro to aybi aniqlanmaguniga qadar aybdor hisoblanmaydi.

25-modda. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish huquqiga ega.

26-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

Amaldagi Konstitutsiyaviy tizimga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taaluqli bo'lgan taqdirdagina Qonun bilan cheklanishi mumkin.

27-modda. Fuqarolar o'zlari qiziqqan hujjat va materiallari bilan tanishish huquqiga ega.

28-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.

VIII-BOB

SIYOSIY HUQUQLAR

29-modda. Fuqarolar jamiyat va Davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish, o'zini-o'zi boshqarish, umumiy majlis o'tkazish, davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

30-modda. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini "Nihol" bolalar respublikasi Qonunlariga munosib mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Hokimiyat organlari faqat havfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki ta'qiqlash huquqiga ega.

31-modda. "Nihol" bolalar respublikasi fuqarolari jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

32-modda. Har bir shaxs o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli bolalar respublikasi organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif hamda shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar Qonunda belgilangan tartib va muddatda ko'rib chiqilishi shart.

IX-BOB

IQTISODIY VA IJTIMOIIY HUQUQLAR

33-modda. Har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega. Bankka qo'yilgan omonatlari sir tutilishi Qonun bilan kafolatlanadi.

34-modda. "Nihol" bolalar respublikasi fuqarolari sinfdan tashqari ishlarda qatnashishlari shart.

35-modda. Har bir fuqaro malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

36-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

37-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

X-BOB

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

38-modda. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va Qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

39-modda. Respublikaning o'quv va tarbiyaviy ishlaridagi muammoli masalalarni sud hal qiladi.

40-modda. "Nihol" bolalar respublikasi fuqarolari jinsidan qat'iy nazar teng huquqlidir.

XI-BOB

FUQAROLARNING BURCHLARI

41-modda. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada va maktab-internati Nizomida belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

42-modda. Fuqarolar Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilishga majburiydirlar.

43-modda. Fuqarolar respublikaning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburiydirlar.

44-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburiydirlar.

45-modda. Fuqarolar Qonun bilan belgilangan yig'implarni to'lashga majburiydirlar.

46-modda. Ota - onalar Davlat tomonidan belgilangan oylik badal pullarini o'z vaqtida to'lashlari va barcha o'quv anjomlari bilan o'quvchilarni tamlab borishga majburiydirlar.

47-modda. Fuqarolar davlat mulklarini saqlashlari shart.

48-modda. Fuqarolar ahloq va odob qoidalariga rioya qilishlari shart.

UCHINCHI BO'LIM

JAMIYAT VA SHAXS

XII-BOB

JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI

49-modda. Maktab-internatining moliyaviy ta'minoti umumta'lim maktabi to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

50-modda. Maktab-internati o'z jamg'armasini tashkil qilish huquqiga ega.

51- modda. Maktab-internati jamg'armasi o'zining deb hisoblanadi va hech kim olib qo'yishi mumkin emas.

XIII-BOB

JAMOAT BIRLASHMALARI

52-modda. "Nihol" bolalar respublikasida Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan izlanuvchan yoshlar jamiyatlari va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

XIV-BOB

OTA-ONALAR

53-modda. Qaysi millat bo'lishidan qat'iy nazar ota-ona o'z farzandlarini maktab-internatida o'qitishlari mumkin.

54-modda. Ota-ona olib borilayotgan o'quv tarbiya ishlarini hisobotini, sinf rahbari va maktab-internati ma'muriyatidan talab qilishi mumkin.

55-modda. Ota-ona darsni tahlil qilish huquqiga ega.

56-modda. Ota-onalar farzandiga o'quv sharoitini yaratish, maktab-internati formalarini, darsliklar, test to'plamlarini olib berishga majburlirlar.

57-modda. Ota-onalar maktab-internati ma'muriyati yoki sinf rahbari chaqirganda kelishlari shart.

58-modda. Ota-onalar maktab-internatiga homiylik qilishi huquqiga ega.

59-modda. Ota-onalar maktab-internatini ta'mirlashda moddiy yordam berishlari shart.

XV-BOB

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

60-modda. Ommaviy axborot vositalari Qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

TO'RTINCHI BO'LIM

MA`MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI

XVI-BOB

"NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI

61-modda. "Nihol" bolalar respublikasi hududi maktab-internati maydoni, DIMI yotoqxonasi va "Izyuminka" bog'cha-maktabi hisoblanadi.

"Nihol" bolalar Respublikasi sinflarni o'z ichiga olgan viloyatlar va tumanlardan iborat.

BESHINCHI BO'LIM

DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

XVII-BOB

"NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASI OLIY KENGASHI

62-modda. "Nihol" bolalar respublikasining Oliy Kengashi Oliy Davlat vakillik organi bo'lib Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

63-modda. "Nihol" bolalar respublikasining Oliy Kengashi ikki palatadan Qonunchilik palatasi (quyi o'quvchilar palatasi) va Senatdan (yuqori o'qituvchilar palatasi) iborat.

"Nihol" bolalar Respublikasi Oliy Kengashining Qonunchilik palatasi va senati vakolat muddati – ikki yil.

"Nihol" bolalar Respublikasi Senati Oliy Kengashning yuqori o'qituvchilar palatasi deputatlari tarkibidan Prezident tomonidan tayinlanadi.

"Nihol" bolalar respublikasining Oliy Kengashiga saylanish huquqiga saylov kunigacha respublika fuqarosi bo'lgan yoshlar egadirlar.

64-modda. "Nihol" bolalar respublikasining Oliy Kengashi mutlaq vakolatlari jumlasiga:

- 1). Ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilish, moliya vazirining taqdimiga va yuqori palata Senatning boshqaruviga binoan "Nihol" bolalar respublikasining byudjetini qabul qiladi hamda uning ijrosini nazorat qiladi.
- 2). "Nihol" bolalar respublikasining sudini saylash;
- 3). "Nihol" bolalar respublikasi Prezidentining vazirliklar, Davlat qo'mitalari va boshqa Davlat boshqaruv organlarini tuzish va tugatish haqidagi Farmonlarni tasdiqlash;

- 4). Mazkur Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi;
- 5) . "Nihol" bolalar respublikasi Senati o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarini buzmaganda amalga oshiradi.
- 6) . "Nihol" bolalar respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi hamda Davlat strategik Dasturlarini qabul qiladi.

65-modd. Oliy Kengash yig'ilishi jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatli hisoblanadi.

66-modd. "Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashi va uning organlari yig'ilishlariga "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti, maktab-internati direktori, bosh sudi, bosh prokurori ishtirok etishlari mumkin.

67-modd. Vakolat muddati tugagach "Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashi yangi chaqiriq Oliy Kengashi ish boshlagunicha o'z vakolatlarini saqlab qoladi.

"Nihol" bolalar respublikasining Oliy Kengashi saylovdan keyingi birinchi yig'ilishi markaziy saylov komissiyasi tomonidan, saylovdan keyin bir haftadan kechiktirmay chaqiriladi.

68-modd. "Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashida Qonunchilik tashabbusi huquqiga "Nihol" bolalar respublikasining Prezidenti, "Nihol" bolalar respublikasining Oliy Kengashi deputatlari, "Nihol" bolalar respublikasi konstitutsiyaviy sudi, Bosh prokurori egadirlar.

69-modd. Oliy Kengash raisi va uning o'rinbosarlari "Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashi orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

"Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashi raisi va uning o'rinbosarlari Oliy Kengash vakolati muddatiga saylanadi.

"Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashining raisi Oliy Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilikning ovoz berishi orqali muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

"Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashining raisi etib bir shahsni surunkasiga ikki muddatdan ortiq saylash mumkin emas.

70-modd. "Nihol" bolalar respublikasi Oliy Kengashining raisi Oliy Kengashi muhokamasiga quyiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi.

71-modd. Oliy Kengash deputatlariga belgilangan tartibda ularning deputatlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan harajatlari qoplanadi.

Deputatlar deputatlik vazifasi vaqtida yuklatilgan vazifani bajaradi.

72-modd. Oliy Kengash deputatlari dahlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular Oliy Kengash rozilgisiz fuqarolikdan chiqarilmaydi.

"NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASI PREZIDENTI

73-modda. "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti respublikada Davlat boshligʻidir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini taʼminlaydi.

74-modda. "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti lavozimiga maktab - internati fuqarosi boʻlgan, Oʻzbek, rus va koreys tillarini yaxshi bilgan fuqorolargina xaqli. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq respublika Prezidenti boʻlishi mumkin emas. Prezident ikki oʻquv yili muddatiga maktab-internatining yettinchi, sakkizinchi va toʻqqizinchi sinfi oʻquvchilari orasidan yashirin ovoz berish yoʻli bilan saylanadi.

Prezidentni saylash tartibi "Nihol" bolalar respublikasining Qonuni bilan belgilanadi.

75-modda. Prezident oʻz vazifasini bajarib turgan davrda boshqa lavozimda ish yuritishi mumkin emas. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va u Qonun bilan muxofaza etiladi.

76-modda. Prezident Oliy Kengash majlisida quyidagi qasamyodni qabul qilgandan boshlab oʻz lavozimiga kirishgan hisoblanadi.

"Nihol" bolalar respublikasi fuqarolariga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va Qonunlariga qatʼiy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, fuqarolarning bilim olishlarida va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman."

77-modda. "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti:

- 1).Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etilishining kafilidir;
- 2).Sinf rahbarlari taklif qilgan devonini tasdiqlaydi;
- 3) . Respublika boshqaruv organlarining qabul qilgan hujjatlarini toʻxtatadi va bekor qiladi.
- 4)."Nihol" bolalar respublikasi Qonunlarini imzolaydi;
- 5)."Nihol" bolalar respublikasi yorligʻi va mukofotlarini topshiradi;
- 6)."Nihol" bolalar respublikasining fuqaroligiga oid masalalarni hal etadi.
- 7)."Nihol" bolalar respublikasining Konstitutsyaviy sudi, Prokurori vakolatlarini belgilaydi va amalga oshirish uchun oʻz tavsiyalarini beradi.

Prezident oʻz vakolatlarini bajarishni Davlat idoralariga yoki mansabdor shahslarga topshirishga haqli

78-modda. "Nihol" bolalar respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va Qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

79-modda. Prezident betobligi bois o'z vazifasini bajara olmasa, Oliy Kengash o'n kun muddat ichida favqulodda yig'ilish o'tkazadi va deputatlar orasidan vaqtincha Prezidentlik vazifasini bajaruvchisini saylaydi. Bu holda uch hafta muddat ichida "Nihol" bolalar respublikasi Prezidentining umumjamoa saylovi o'tkazilishi shart.

80-modda. Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident ushbu muddatdan keyin ham respublikaning Faxriy Prezidentlik nomini saqlab qoladi.

XIX-BOB

VAZIRLAR MAHKAMASI

81-modda. Vazirlar Mahkamasi tarkibini "Nihol" bolalar respublikasi Bosh vaziri tuzadi va Oliy Kengash tomonidan ko'rib chiqilib Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

82-modda. "Nihol" bolalar respublikasida umumiy tartibotni mustahkamlash va siyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda fuqorolar xavfsizligini himoya qilish uchun ichki ishlar vazirligining tuzilishi va ularni tashkil etilishi Qonun bilan belgilanadi.

XX-BOB

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYTI ASOSLARI

83-modda. Sinflarda sinf faollari ish olib boradi. Rahbarlikni sinf rahbarlari va sinf hokimlari amalga oshiradi.

Prezident hamda Oliy Kengash chiqargan qarorlarni amalga kiritilishini ta'minlaydi.

XXI-BOB

"NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASINING SUD HOKIMIYATI

84-modda. "Nihol" bolalar respublikasida sud hokimiyati Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish olib boradi.

"Nihol" bolalar respublikasi Konstitutsion sudi, Oliy sudi Prezident tomonidan tayinlanadi va Oliy Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

85-modda. "Nihol" bolalar respublikasining sud tizimi ikki o'quv chorak muddatga saylanadigan respublika sudidan iboratdir.

Sudlarni tashkil etish va ularni faoliyat ko'rsatishi tartibi Qonun va maktab-internati Nizomi bilan belgilanadi. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'ymaydi.

XXII-BOB

SAYLOV TIZIMI

86-modda. Barcha o'quvchilar saylash huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga egadir.

Nihol bolalar Respublikasining Prezidentligi saylovi saylovchilarning ko'pchilik ovozi bilan amalga oshiriladi.

XXIII-BOB

PROKURATURA

87-modda. "Nihol" bolalar respublikasi hududida Qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni respublika Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

XXIV-BOB

MOLIYA VA KREDIT

88-modda. Respublikaning byudjeti sarmoyadan tashqari tashkil qilinadi.

89-modda. "Nihol" bolalar respublikasi hududida yagona soliq tizimi amalga oshiriladi. Soliqlar joriy qilishga faqat respublikaning Oliy Kengashi haqlidir.

90-modda. "Nihol" bolalar respublikasi nodavlat, notijorat tashkilot bo'lganligi sababli o'z sarmoyasini maktab -intenati ma'muriyati ixtiyoriga topshiradi.

OLTINCHI BO'LIM

KONSTITUTSIYGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

91-modda. "Nihol" bolalar respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar respublikaning Oliy Kengashi jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan Qonunlar bilan kiritiladi.

92-modda. O'zgartirish kiritish tartibi maktab – internatining maqomi hududi Siyosiy-iqtisodiy tarmoqlarining o'sishi va rivojlanishi bilan amalga oshiriladi.

MUNDARIJA

BIRINCHI BO'LIM. ASOSIY TAMOYILLAR

I-BOB. DAVLAT SUVERENITETI.....	5
II-BOB. XALQ HOKIMIYTCHILIGI.....	5
III-BOB. KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI	5
IV-BOB. TASHQI SIYOSAT	6

IKKINCHI BO'LIM. FUQOROLARNING ERKINLIKLARI, HUQUQLARI VA BURCHLARI

V-BOB. UMUMIY QOIDALAR.....	6
VI-BOB. FUQAROLIK.....	6
VII-BOB. SHAHSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR.....	6
VIII-BOB. SIYOSIY HUQUQLAR.....	7
IX-BOB. IQTISODIY VA IJTIMOY HUQUQLAR.....	7
X-BOB. INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI.....	8
XI-BOB. FUQAROLARNING BURCHLARI.....	8

UCHINCHI BO'LIM. JAMIYAT VA SHAXS

XII-BOB. JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI.....	8
XIII-BOB. JAMOAT BIRLASHMALARI	9
XIV-BOB. OTA-ONALAR.....	9
XV-BOB. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI.....	9

TO'RTINCHI BO'LIM. MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI

XVI-BOB. "NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI.....	9
---	---

BESHINCHI BO'LIM. DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

XVII-BOB. "NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASI OLIY KENGASHI.....	10
XVIII-BOB. "NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASI PREZIDENTI.....	11
XIX-BOB. VAZIRLAR MAHKAMASI.....	12
XX-BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI.....	13
XXI-BOB. "NIHOL" BOLALAR RESPUBLIKASI SUD HOKIMIYATI.....	13
XXII-BOB. SAYLOV TIZIMI	13
XXIII-BOB. PROKURATURA	13
XXIV-BOB. MOLIYA VA KREDIT	13

OLTINCHI BO'LIM. KONSTITUTSIYGA O'ZGARTIRISH

KIRITISH TARTIBI.....	14
-----------------------	----

